



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 10-may, № 95 (8990)

Shanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI G'ALABANING 80 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI TADBIRLARDA ISHTIROK ETDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan 9-may kuni Ikkinchi jahon urushidagi G'alabani 80 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etdi.



Qizil maydonda G'alaba paradi bo'lib o'tdi. Tadbirda Xitoy Raisi Si Szinpin, Braziliya Prezidenti Lula da Silva, Misr Prezidenti Abdulfattoh as-Sisi, Belarus Prezidenti Aleksandr Lukashenko, Qozog'iston Prezidenti

Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov, Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsux,

Kuba Prezidenti Migel Dias-Kanel, Venesuela Prezidenti Nikolas Maduro va boshqalar ham qatnashdi. Ikkinchi jahon urushidagi g'alaba millionlab insonlarning jasorati, matonati va fidoyiligi natijasidir. Bu

ulug' maqsadga erishishda ko'p millatli O'zbekiston xalqining ham salmoqli hisssasi bor.

Urush boshlangan paytda respublikamiz aholisi 6 million nafardan ziyod edi. Urush yillarida ikki millionga yaqin o'zbekistonlik frontga jo'natildi. 538 mingdan ziyod kishi jang maydonlarida halok bo'ldi, 158 mingdan ortig'i bedarak yo'qoldi.

Ko'rsatgan mardligi va jasorati uchun O'zbekistondan 214 mingdan ziyod askar va ofitserlar jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi. Vatandoshlarimizdan 301 kishi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi, yana 70 kishi "Shuhrat" ordenining barcha darajalari sohibi bo'ldi.

O'zbek xalqi mehnat borasida ham ulkan jasorat ko'rsatdi. Mamlakatimiz frontning ishonchli tayanchiga aylandi: bu yerdan oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon, qurol-yarog' va boshqa zarur resurslar uzluksiz jo'natib turildi. Qisqa muddatda O'zbekiston hududida 170 dan ortiq evakuatsiya qilingan korxonalar joylashtirilgan mudofaa sanoatining uzilishsarsiz ishlashini ta'minladi.

O'sha og'ir yillarda O'zbekiston xalqi yuksak insonparvarlik namunasini ko'rsatib, frontoldi hududlaridan evakuatsiya qilingan 1,5 milliondan ortiq kishilarni, jumladan, 250 mingdan ziyod yetim bolalarni qabul qildi.

O'zbek xalqining urush yillaridagi jasorati xalqaro hamjamiyatda keng e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda ham urush va mehnat fronti qatnashchilarining xotirasini abadiylashtirish, faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Toshkentda ulug'vor "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi barpo etildi.

G'alaba paradi yakunida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin va boshqa davlat rahbarlari bilan birgalikda Aleksandr bog'idagi Noma'lum askar qabriga gul qo'ydi.

Ushbu yodgorlik g'alaba yo'lida mislsiz jasorat ko'rsatgan va jon fido qilgan millionlab jangchilar, jumladan, O'zbekiston farzandlari xotirasiga o'rnatilgan.

Marosim bir daqiqalik sukut hamda faxriy qorovul va harbiy orkestrning tantanali yurishi bilan yakunlandi.

Moskva shahridagi tadbirlar doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Shubhat avvalida davlat rahbarlari G'alabani 80 yilligi munosabati bilan bir-birini samimiy quttadilar.

O'zbekiston — Rossiya keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada

kengaytirish va mustahkamlash, shu jumladan, Rossiya Prezidentining o'tgan yil may oyidagi O'zbekistonga tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik sur'atini saqlab qolishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni qabul qilish muhim ekani ta'kidlandi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridagi loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni jadallashtirish, shuningdek, hududlar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Gumanitar almashinuvlar, eng avvalo, madaniyat, san'at, fan va ta'lim sohalarida samarali bo'layotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekiston va Rossiya yetakchilari xalqaro ahamiyatga molik masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Shuning bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Moskva shahriga amaliy tashrifi yakunlandi. "Vnukovo" xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Rossiya rasmiylari kuzatib qo'ydi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Senat va yoshlar

MAMLAKAT RIVOJIDA KATTA KUCH

Oliy Majlis Senatida O'zbekiston Milliy universiteti hamda Toshkent davlat yuridik universitetining iqtidorli talabalari bilan uchrashuv o'tkazildi.

Talabalarga parlament yuqori palatasi — Senatning asosiy yo'nalishi va vakolatlari, senatorlar faoliyatining huquqiy asoslari, ularning huquq hamda majburiyatlari, parlament nazoratini olib borishning ayrim jihatlarini to'g'risida tushunchalar berildi.

Shuningdek, talabalar Yoshlar parlamentining maqsad va vazifalari, uning yoshlarga oid davlat siyosatini shakllantirishdagi o'rni va faoliyati haqida ham batafsil ma'lumotga ega bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston aholisining yarmidan ko'prog'ini navqiron avlod tashkil etadi. Bu demografik ko'rsatkich mamlakatni tez sur'atlarda rivojlantirishda kuchli manba hisoblanadi. Buning uchun davlat tomonidan yoshlarga doir ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yetti yil ichida yigit-qizlar masalalarini tartibga soluvchi 100 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlarini qabul qilindi.

2020-yilda esa davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Oliy Majlisning ikkala palatasi huzurida Yoshlar parlamentiga asos solindi. Bu tuzilma ertamiz egalari manfaatlarini himoya etish, ularni qonunchilik jarayonlariga jalb qilish vazifasini bajarib kelmoqda. Yoshlar parlamenti tashkil etilganidan buyon uning a'zolari 100 dan ortiq qonun loyihalari muhokamalarida qatnashdi va parlament qo'mitalari bilan birgalikda 80 dan ortiq nazorat-tahlil faoliyatlarini amalga oshirdi.

Senatda yoshlar bilan uchrashuvlarning muntazam yo'lga qo'yilganligi nafaqat ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, balki mamlakat parlament tizimi, demokratik islohotlar va qonunchilik jarayoni haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lish imkonini ham berishi bilan ahamiyatlidir.

"Xalq so'zi".

Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi

Vatan tinchligi, osoyishtaligi va ravnaqi yo'lida kurashgan, zahmat-la ter to'kkan har bir inson yuksak qadr va ehtiromga munosib. Shu ma'noda, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaga hissa qo'shgan qahramonlar xotirasini ulug'lash, hayotimiz fayzi bo'lib umrguzaronlik qilayotgan urush va mehnat faxriylariga hurmat-ehtirom ko'rsatish yurtimizda oliyanob qadriyatga aylangan. Shuningdek, mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari yodi e'zozlanib, ularning yaqinlari har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda.

Har yili 9-may — Xotira va Qadrlash kuni umumxalq bayrami munosabati bilan bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tariladi. Davlatimiz rahbarining joriy yil 19-fevraldagi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 80 yilligi hamda Xotira va Qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va munosib nishonlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ayni kunlarda butun mamlakatimiz bo'yab keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mazkur sana yurtimizda "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida nishonlanayapti.

Yolg'iz va kam ta'minlangan Ikkinchi jahon

urushi qatnashchilarining yashash joylarini ta'mirlash, obodonlashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ularning salomatligi, mazmunli dam olishi doimiy nazoratda.

Kuni kechagi Prezidentimizning bayram tabrigi ko'ngillarni yanada nurafshon etdi.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo'lgan shaxslarga, front orti mehnat faxriylariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan biryo'la to'lanadigan pul mukofoti, "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" yubiley medali tantanali ravishda topshirildi. Bu

boradagi ishlar mamlakatimizda inson qadri ulug'ligi, Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik hech qachon zavol bilmasligining yana bir amaliy ifodasidir.

2 va 3-sahifalarga qarang.

TARAQQIYOT SARI ODIMLAYOTGAN VOHA

Mamlakatimizda olib borilayotgan xalqchil siyosatning asosida ilm-fanni rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yuqori pog'onalarga olib chiqish, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etish va yoshlarning bilim olishiga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash kabi yaratuvchanlik g'oyalari mujassam.

Munosabat

Buni biz Prezidentimizning yaqinda qadim Xorazm vohasiga qilgan tashrifida ham ko'rishimiz mumkin. Davlatimiz rahbari safar chog'ida Urganch xalqaro aeroporti yaqinida qurilayotgan Al-Xorazmiy shaharchasi bilan ham tanishdi. E'tibor bering, 130 gektarlik hududda barpo etilayotgan bu shaharchada 5 mingdan ortiq xonadon, texnopark, madaniyat va tibbiyot markazlari, maktab va bog'chalar, sport majmualari hamda savdo obyektlari joylashtiriladi. Shaharcha markazida Al-Xorazmiy haykali o'rnatilib, bu yerda alloma nomidagi universitet va Toshkentdagi Muhammad al-Xorazmiy maktabining filiali tashkil etiladi.

Mazkur ta'lim muassasalarida matematika, informatika, aerokosmik texnologiyalar va sun'iy intellekt sohalarida mutaxassislar tayyorlash ko'zda tutilgan.

Shuningdek, Xorazmda amalga oshiriliishi rejalashtirilayotgan umumiy qiymati 1,5 mlrd. dollarlik investitsiya loyihalarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Ular mashinasozlik, shaharsozlik, kimyo,

to'qimachilik, qurilish materiallari, tibbiyot va oziq-ovqat sohalarini o'z ichiga oladi. Ushbu loyihalar viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiyalash, ish o'rinlari yaratishga hissa qo'shadi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz rahbari viloyat faollari bilan uchrashib, iqtisodiyotning barcha sohasini, jumladan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalariga ham e'tibor qaratdi. Unga ko'ra joriy yilda viloyatda 60 mln. dollarlik 56 ta loyihani ishga tushirish, 3 400 gektar yerlarni qayta foydalanishga kiritish, 31 kilometr katta kanal, 1 600 kilometr ichki ariqlarni betonlashtirish, 1 200 gektar sanoatlashgan mevali bog'larni tashkil qilish zarurligi qayd etildi.

So'z qishloq xo'jaligi to'g'risida borar ekan, tobora tanqislashib borayotgan suv muammosini tilga olmaslikning iloji yo'q. Bu voha uchun nihoyatda dolzarb masalalardan biridir.

Shu jihatdan, suvni tejash bo'yicha Xorazm o'z tajribasini yaratgani e'tirof etildi. Yerlarning 93 ming gektari lazerli tekislashga o'tgan, 196 ming gektarga suv tejovchi texnologiya o'rnatilgan. Ushbu ishlar hisobiga yiliga 1 mlrd. kubometr suv iqtisod bo'lmoqda.

Aholi salomatligini mustahkamlashda zamonaviy yondashuv va imkoniyatlar

So'g'liq — beqiyos ne'mat. Unga doir muammolarni bir kunda hal qilib bo'lmaydi, lekin tinimsiz harakat, izchil siyosat va xalqqa mehr bilan amalga oshirilgan ishlar albatta samara beradi. So'nggi 7-8 yilda O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida shu kabi sa'y-harakatlar kuchayib, bugungi kunda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Albatta, barcha muammo bitdi, hammasi yo'lga qo'yildi deyishdan yiroqimiz, lekin yo'nalish to'g'ri, qadamlar esa ishonchli.

Aks sado

Bugun hayotimizning hech bir qismini axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu bois

bunday zamonaviy yondashuv va imkoniyatlar tibbiyot sohasiga ham tatbiq etilmoqda. Avval shifoxonada navbat kutgan, yo'lkira deb cho'ntagiga qarab tashvishlangan

Kiberkorrupsiya: yangi davr — yangi xavf-xatarlar

Huquqiy davlat uchun eng xavfli dushman korrupsiyadir. Jahon banki statistik ma'lumotlariga ko'ra korrupsiyadan davlatlarga yiliga 2,6 trln. AQSH dollaridan ortiq zarar yetkaziladi.

Dolzarb mavzu

Bu jahon yalpi ichki mahsulotining deyarli 5 foizini tashkil qiladi. Binobarin, korrupsiyaga qarshi kurashish davlat uchun nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurash,

balki iqtisodiy zararning oldini olish masalasi hamdir. Shu jihatdan BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida korrupsiya va poraxo'rlikning barcha ko'rinishini kamaytirish choralari nazarda

tutilgani ham bejiz emas. O'zbekiston Respublikasida ham korrupsiya mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlardan ko'rilgan zarar 3,61 trln. so'mga (taxminan 278,5 mln. AQSH dollari) yetib, bu 2023-yildagidan 2,3 barobar ko'pdir.



VATAN RAVNAQI, TINCHLIGI VA HIMOYASI

Hozirgi murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalash, diyorimizdagi tinchlik va barqarorlikni, millatlar va dinlararo ahillik va totuvlikni asrash yoʻlida qahramon ota-bobolarimizning Ikkinchi jahon urushi yillarida koʻrsatgan sabot va matonati biz uchun hamisha ibrat maktabi, kuch va ilhom manbai boʻlib xizmat qiladi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

ODAMIYLIKNING OLIY MEZONI

Ikkinchi jahon urushi haqiqatan ham insoniyat tarixidagi eng dahshatli, eng qonli qirgʻin edi. Bu urush insoniyat, jumladan, xalqimiz boshiga qanday ogʻir azob-uqubat va talafotlar, behisob qurbonlar keltirganini el-yurtimiz hech qachon unutmaydi.

Bu qirgʻinbarot urushda Oʻzbekiston aholisining qariyb 2 millioni ishtirok etgan.

Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam taʼminot bazasiga aylanib, jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarogʻ, kiyim va oziq-ovqatlar yetkazib turgan. Gʻoyat ogʻir sharoitga qaramay xalqimiz urush hududlaridan koʻchirib kelingan 1,5 millionga yaqin insonlarni, jumladan, ota-onasidan judo boʻlgan 250 ming nafar yetim bolani oʻz bagʻriga olib, mehr koʻrsatgan.

Aytish kerakki, bugungi kunda Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni oʻrganishda tom maʼnoda yangi davr boshlandi.

Xususan, urush qatnashchilarining qahramonliklarini abadiyatga muhrlash maqsadida poytaxtimizda Gʻalaba bogʻiga asos solindi. Uning tarkibida "Matonat madhiyasi", "Mangu jasorat" va "Koʻz yoshi" monumentlari, "Shon-sharaf" davlat muzeyi barpo etildi. Davlat rahbarining tavsiyalari asosida qisqa fursatda keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari va jiddiy tahliiliy izlanishlar amalga oshirildi.

Har yili urush qahramonlari moddiy va maʼnaviy jihatdan qoʻllab-quvvatlanmoqda. Xususan,

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-fevraldagi Farmoniga muvofiq 9-may — Xotira va Qadrlash kuni munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlari, ularga tenglashtirilgan shaxslar hamda 1941 — 1945-yillardagi urush davridagi mehnat fronti qatnashchilarini moddiy ragʻbatlantirish maqsadida bir martalik pul mukofotlari belgilandi.

Eʼtiborga molik jihat, ushbu Farmon ijrosi doirasidagi ishlar yosh avlod koʻz oʻngida amalga oshirilur ekan, ular bu mamlakatda inson xotirasi azizligi, mardlik va jasorat aslo unutilmasligi, qahramonlik, vatanparvarlik munosib qadrlanishining guvohi boʻlib ulgʻayadi, ibrat oladi. Zotan, bukilmas iroda namunasini amalda namoyon qilib, Vatanimizning bugungi tinch va osoyishta kunlari uchun jonini fido qilgan ajdodlarimizning muqaddas xotirasini yodga olib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni eʼzozlash — odamiylikning eng oliy mezon.

Munajat YOʻLCHIYEVA,
Oliy Majlis Senatining
Yoshlar, xotin-qizlar,
madaniyat va sport masalalari
qoʻmitasi aʼzosi.

QALBLARDAGI MEHR HALQASI

9-may — Xotira va Qadrlash kuni munosabati bilan Yangiyoʻl shahridagi Havo hujumidan mudofaa va Harbiy havo kuchlari qoʻmondonligiga qarashli harbiy qismda tashkil etilgan "Uch avlod uchrashuvi" mangu nur egalaridan biri — Shermuhammad Ashirov xotirasiga bagʻishlandi.



Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamentidan maʼlum qilishlaricha, Shermuhammad Ashirov nomi bugun har bir yangiyoʻllikning yuragida ohang boʻlib jaranglaydi. Uning hayoti sahifalarga sigʻmaydigan jasorat

dostonidir. U Surxondaryo tuprogʻida — tarix zaminining ogʻir sinovlaridan birida, Sariosiyo tumanidagi janglarda mardlarcha halok boʻldi. Dushmanga qaddini bukmadi, orini yerga urmadi, vatanparvarlik nima ekanini butun dunyoga namoyon etdi. U mangu koʻz yumdi, ammo jasorati barhayot qoldi, ismi yuraklarda muhrlandi. Oʻlimidan soʻng berilgan II darajali "Shon-sharaf" ordeni, taʼbir joiz boʻlsa, bu — jasoratga bitilgan unutilmas muv.

Tadbir davomida maktab oʻquvchilari, faxriylar va harbiy xizmatchilar bir safda turib, mard oʻgʻlonni ehtirom bilan yodga oldi. Har bir avlod vakili oʻz nigohi bilan vaqt koʻprigidan oʻtib, jasorat darsini qalban his qildi. Namoyish etilgan videoliklarda Shermuhammad Ashirovning hayoti, orzulari, kurashi koʻz oldimizda jonladi — yigitning har bir qadami, soʻnggi nafasigacha boʻlgan fidoyiligi yuraklarga sekin, ammo chuqur kirib bordi.

Uchrashuv davomida mehmonlarning samimiy soʻzlari esa tinglovchilarning qalbiga joylandi. Ularning har bir jumlası — kechagi fidoyilikni bugungi tinchlik bilan bogʻlaydigan koʻpriki edi. Inchinun, bu soʻzlar yoshlarning qalbiga ezgulik urugʻini sepdı, yurtga muhabbatini yuksaltirdi.

Tadbirning esda qolarli lahzalaridan biri Shermuhammad Ashirovning onasi bilan uchrashuvda boʻldi. Uch avlod vakillari bu mard oʻgʻlonni dunyoga keltirgan, uni el uchun tarbiyalagan onaga taʼzim bajo aylashdi. Onaning koʻzida oʻgʻliga boʻlgan cheksiz sogʻinch, yuragida esa faxr va armon mujassam edi. Baxtu iztirob, faxr va koʻz yoshi bilan yoʻgʻrilgan ona koʻnglini koʻtaruvchi soʻzlar yangradi.

Darhaqiqat, bu kabi tadbirlar oʻtmish bilan bugun oʻrtasidagi koʻzga koʻrinmas, ammo qalblarda seziladigan mehr halqasidir. Bu — tarixni unutmaslik, qahramonlar xotirasini muqaddas bilish, ulardan ibrat olish, nomini yurakda saqlab yashash demak.

Rahim ShERQULOV
("Xalq soʻzi").

XOTIRA — AZIZ, QADR — ABADIY

Mamlakatimizda 9-may — Xotira va Qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan gʻalabaning 80 yilligi shonli bayram sifatida keng nishonlanmoqda.

Xotira — kechagi oʻtmishni, milliy merosimizni anglatib turuvchi muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi. Ushbu qutlugʻ kunda insoniyat tarixidagi eng dahshatli urushda jasorat koʻrsatib, bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolgan qahramon ota-bobolarimiz hamda front ortida mardona mehnat qilib, gʻalabani taʼminlashga munosib hissa qoʻshgan mard va oliyanob yurtdoshlarimiz xotirasiga yuksak hurmat-ehtirom bajo keltirishimiz muhim.

Prezidentimizning bayram tabrigida frontga safarbar etilgan oʻzbekistonlik jangchilardan 540 mingga yaqini halok boʻlgani, mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam taʼminot bazasiga aylangani, xalqimiz yuksak odamiylik fazilatini namoyon etib, urush hududlaridan evakuatsiya qilingan 1 million 500 mingga yaqin insonlarga boshpana berib, ota-onasidan judo boʻlgan 250 ming nafar yetim bolani bagʻriga olgani taʼkidlandi.

Mardlik va qahramonlik koʻrsatgan ajdodlarimizni yod etib, hurmat-ehtirom koʻrsatish hayotiyi koʻnikma va anʼanaga aylangan. Xalq oʻz farzandlarini hech qachon esdan chiqarmaydi. Xotirasiz yashash aslo mumkin emas. Xotira va qadr har qanday kishini maʼnan ragʻbatlantiradi, uni yashashga, el-yurtga sadoqat va qatʼiyat bilan xizmat qilishga undaydi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front ortida fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizning nomlarini abadiylashtirish, ularning beqiyos jasorati va matonatini tarix sahifalariga muhrlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Toshkent shahrida Gʻalaba bogʻi, hududlarda "Vatanparvar" bogʻlari bunyod etilgan.

Shuningdek, bayram tabrigida mustaqillik yillarida Vatanimiz ozodligi, xalqimiz osoyishtaligini himoya qilish yoʻlida qahramonlarcha halok boʻlgan jasur harbiylarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirishga ham alohida eʼtibor qaratilgan. Gʻalaba bogʻi hududida Prezidentimizning gʻoyasi asosida ona yurt qalqonlari sharafiga barpo etilgan yana bir tarixiy yodgorlik — Millat fidoyilari majmuasi aynan marhum bahodir harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasiga bagʻishlangan boʻlib, ushbu xiyobon Gʻalaba bogʻining maʼnaviy ahamiyatini yanada oshirdi.

Mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga, mehnat fronti qatnashchilariga alohida eʼtibor hamda gʻamxoʻrlik koʻrsatilmoqda. Ularga hamma hududlarda pul mukofotlari va "Ikkinchi jahon urushidagi gʻalabaning 80 yilligi" yubiley medallari topshirilgani, ularning yashash joyiga tashriflar va

doimiy ravishda patronaj xizmatining tashkil qilinayotgani ushbu ishlarning yorqin ifodasidir.

Koʻrib guvohi boʻlyapmiz, tahlikali dunyoda tinchlik omonat boʻlib qoldi. Osoyishtalik uchun shukronalikda boʻlish, mehnat qilish, doim izlanish muhim. Qahramonlarimizdan oʻmak va namuna olib, tinchligimizni taʼminlash har birimizning burchimizdir.

Oxirgi yillarda mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlash, qoʻshinlarning harbiy tayyorgarligini kuchaytirish, harbiy xizmatchilar va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mudofaa sanoati faoliyati samaradorligini koʻtarish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilmogda.

9-may kuni Moskvaning Qizil maydonida boʻlib oʻtgan Gʻalaba paradida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bilan birga Oʻzbekiston harbiylari ham ishtirok etib, Ikkinchi jahon urushida qatnashgan ajdodlarimizga hurmat bajo keltirgan holda mamlakatimiz harbiy salohiyati va imijini jahon hamjamiyatiga yana bir bor namoyon qildi.

Qahramonlarimiz xotirasini hamisha esda tutib Oʻzbekiston mustaqilligini yanada mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yurtimizda tinchlik va millatlararo totuvlikni taʼminlash bundan buyon ham davlat va jamiyatning asosiy vazifasi boʻlib qoladi.

Ulugʻbek SHERMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining Xalqaro ishlar,
mudofaa va xavfsizlik masalalari
qoʻmitasi raisi.

Millatimiz fidoyilari eʼzozda

Urgut tumanining Ispanza qishlogʻida tugʻilib voyaga yetgan Boʻron Gadoyev 1942-yili — oʻrta maktabni endigina tugatgan kezlari yurt oʻgʻlonlari qatori frontga safarbar etildi.

1946-yilda yurtga qaytgach esa Samarqand davlat universitetining geografiya fakultetiga oʻqishga kirdi. Oliy maʼlumotli boʻlgach, tumandagi 6-maktabda oʻquvchilarga geografiya fanidan saboq bera boshladi. Qatʼiyatli, oʻziga talabchan taʼlim fidoyisi Boʻron Gadoyev ushbu maktabda direktor oʻrinbosari, direktor lavozimlarida uzoq yillar samarali faoliyat olib bordi.

Bugunga kelib yuz yoshdan oshgan bu ulugʻ inson yaqinlari, shogirdlari, qolaversa, xalqimiz ardogʻida. Prezidentimizning doimiy eʼtiboridan qalbi quvonchga toʻladigan qahramon otaxon har safar uni yoʻqlab kelganlarga urush xotiralari,

oʻsha mashaqqatli yillar hamda qoʻlga kiritilgan gʻalaba xursandchiliklari haqida gapirib beradi. Yoshlarni bugungi dorilamon kunlarning qadriga yetishga undaydi.

— Oʻshanda safdosh birodarlarimiz bilan urush qizigan jang maydonlariga kirar ekanmiz, bizda aslo oʻlimdan qoʻrqish hissi boʻlmagan. Chunki biz yurtimiz, xalqimiz, oilamizni himoya qilayotganimizni yaxshi anglardik, — deydi Boʻron Gadoyev. — Aksincha, qalbimiz iftixorga toʻlib, jasorat bilan Vatan himoyasi uchun jangga kirardik. Janglarda koʻplab safdoshlarimiz halok boʻldi, ammo ulardan qolgan porloq xotira doim biz bilan yashaydi. Darhaqiqat, yuksak jasorat va mardlik



koʻrsatgan ajdodlarimiz yodi hech qachon unutilmaydi. Zero, insoniyatni fashizm balosidan qutqarish uchun oʻzini ayamay jang maydonlarida qon kechgan, koʻplab mashaqqatli sinovlarni boshidan oʻtkazgan faxriylarimiz har qancha hurmat va ehtiromga munosib.

Abdulaziz YOʻLDOSHEV
("Xalq soʻzi").

MARDLAR JASORATI MANGU

Bir kuni xorij telekanallaridan birida namoyish etilayotgan 1941 — 1945-yillardagi urush mavzusiga bagʻishlangan teledasturni tomosha qilarkanman, ishtirokchilardan biri kutilmaganda, "Urushda boʻlgan voqealarlarning yarmidan koʻpi toʻqib chiqarilgan. Bunga misol qilib Panfilov diviziyasi haqidagi yudirmani koʻrsatish mumkin. Aslida bunday diviziya boʻlmagan", deb qoldi. Bu gapni eshitib, hayron qoldim.



Bu bejiz emasdi. Chunki Toshkent davlat yuridik universitetida ishlaganimda, yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan yurist Ikrom Jalilov bilan bu mavzuda juda koʻp marta suhbatlashganman va urush xotiralarini tinglaganman. Ikrom aka endi oramizda yoʻq. Lekin u kishi urush haqida soʻzlar ekan, xuddi oʻsha damlarga qaytgandek iztirob va alarni his etgani, jang maydonida qolgan safdoshlarini eslab mijjalari namlangani hamon yodimd.

— Jang eng avjiga chiqqan vaqt. Hammayoqni oʻq va portlayotgan bombalar ovozi tutib ketgan. Jangchilarimiz mardonovar kurash olib borishardi. Bunday vaqtda oʻzimizning marqol bilan vaqtga,

"Ha, degan tuyaga madad" boʻladi. Vaziyatni toʻgʻri tushungan diviziya siyosiy rahbari (oʻsha vaqtda "politruk" deyilardi) I. Klochkov jangchilar oldiga qchiqb bor ovozda "Orqaga chekinish yoʻql", deb qichqirdi. Rahbarning bu chaqirigʻi jangchilarni ruhlantirdi. Jang yanada shiddat bilan davom etdi, — deb eslagan edi Ikrom aka Jalilov.

Bu misli koʻrilmagan jasorat timoli boʻlgan jang edi. 28 nafar jangchi dushmaning 50 dan ortiq tanklariga qarshi kurash olib bordi. Fashistlarni Volokolamsk shossesida ushlab turdi va ularga qaqshatqich zarba berdi. Ular orasida oʻzbek zobitlari ham bor edi. Ulardan biri — vzvod komandiri, yosh leytenant Ikrom Jalilov boʻlgan.

Ikrom aka xotiralaridan yana quyidagilarni eshitib, yozib olganman.

Bosh shtab diviziyani Moskva shahri himoyasiga yuboradi. Leytenant Jalilovning vzvodi, birinchi jangini 1941-yilning oktyabr oyida boshlagan. Topshiriq olishgach jangchilar kechasi bilan yurib Volokolamsk shossesidagi xayfli hududga yetib kelishadi. Vaqti-vaqti bilan raketalar dalani yoritganda askarlarning yerda yotgan murdalari koʻrinar edi. Leytenant Jalilovning vzvodi birinchi boʻlib hujumga oʻtdi. Fashistlar askarlarimiz 100 — 150 qadamgacha yaqinlashganida oʻt ochdi. Jang juda qoʻrqinchli edi: odamlarning boshi ustidan uchib oʻtayotgan oʻqlar, portlayotgan minalar, snaryadlar tovushi — hamma-hammasi dahshatli edi.

Ana shunday vaziyatda odam oʻzini yoʻqotmaslikka harakat qilishi kerak. Biroz vaqt vzvod tinchlanib qoldi. Dushman ham tinchigandek boʻldi. Lekin urushda har daqiqa gʻanimat, vaqt boy berilsa fashistlar jangchilarimizni qirib tashlashi hech gap emas. Shunda leytenant Ikrom Jalilov birinchi boʻlib hujumga tashlandi, orqasidan boshqa jangchilar

ham yugurib, qoʻl jangi boshlanib ketdi, granatalar portladi...

Shundan soʻng janglar Kryukovo stansiyasida joylashgan gʻisht zavodi yonida davom etdi. Dekabrning birinchi kunlarida bu hudud bir fashistlar, bir panfilovchilar qoʻliga oʻtar edi. Aynan shu kunlari Jalilov barcha askarlarga oʻzining harbiy mahoratini, chidamliligini koʻrsatdi. Vzvod himoya pozitsiyasini egallab turdi. Janglarda koʻrsatgan mahorati, mardligi, jangchilarni oʻrtidan ergashtira olish salohiyatiga yuqori baho bergan rahbarlar yosh Ikrom Jalilovni 2-batalyon, 5-oʻqchi rotaga komandir etib tayinlashdi. Bundan tashqari, u "Jasorati uchun" medali bilan taqdirlandi. Keyinchalik bu mukofotlar qatoriga "Vatan urushi" ordeni, "Moskva himoyasi uchun" medallari ham qoʻshildi.

Moskva himoyasida qahramonlik koʻrsatgan Panfilov diviziyasi keyin Gʻarbiy-Shimoliy hududdagi frontga joʻnatildi. Bu yerda boʻlgan janglarda yosh komandir qattiq yarananib, uzoq vaqt Vladimir va Ijevsk shaharlaridagi gosptallarda davolandi.

"Men Panfilov diviziyasida jang qilganim bilan faxrlanaman. Bu mening taqdirimdagi eng yorugʻ

sahifadir", degan edi professor. Bu xotiralar xorij telekanalida yangragan soʻzlar naqadar asossiz ekanligini yaqqol koʻrsatadi.

Jalilov harbiy kasb egasi boʻlishni orzu qilardi, ammo jangda olgan jarohati tufayli orzusi roʻyobga chiqmadi. Taqdir yosh yigitni koʻpgina sinovlardan oʻtkazdi, lekin shijoatli, irodali va jangovar feʼli tufayli Ikrom Jalilov bir qoʻli majruh boʻlishiga qaramay maqsad sari dadil oʻtdimadi. U Toshkent davlat yuridik institutini bitirib Andijonda avval tuman, soʻngra shahar va viloyat prokurori lavozimlarida ishladi.

Bilinga boʻlgan chanqoqlik uni ilmiy tadqiqot ishlariga undadi. Aspiranturani bitirgach yuridik fanlar nomzodi, keyin shu yoʻnalish boʻyicha fan doktori boʻldi. Ikrom Jalilov uzoq yillar mobaynida Oʻzbekiston Fanlar akademiyasida mehnat faoliyatini olib bordi, butun vujudi bilan Vatanimizga xizmat qildi, yosh avlodni tarbiyalashda oʻz kuch-gʻayratini ayamadi. U doim oʻzining shijoati, donoligi, kamtarinligi bilan ajralib turardi. Barcha hamkasblar, yuridik sohaning vakillari haligacha bu ajoyib insonni alohida hurmat bilan xotirlaydi.

Gulnora MANSUROVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti professori, falsafa
fanlari doktori.



YO'LIDAGI QAHRAMONLIK UNUTILMAYDI

SHUKRONALIK SAODATI

Rashida ISHKULOVA,
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (Qiziltepa tumani):



— Prezident tabrigini eshitib, quvonchdan ko'zlarimga yosh keldi. Men frontga borganimda endigina o'n yetti yoshdan oshgan edim. 1943-yil 15-oktyabrdan e'tiboran 2-Belarus frontining harbiy hospitalida hamshira bo'lib urush dahshatlarini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Berlingacha bo'lgan jang yo'lida qancha askarning hayotini saqlab qolganimizni bilmayman, lekin ko'limizda jon bergan norg'ul yigitlarni unutmayman. Hayot ostonasida turgan, orzulari bir olam yigitlar... Qanchadan-qanchasining jarohat sabab oyoq yoki qo'llarini kesib tashlashga to'g'ri kelganida yalingani, jon taslim qilayotib, iltijo bilan qadalgan nigohlari hali-hanuz ko'z o'ngimdan ketmaydi.

DOIMY E'TIBOR UMRIMIZGA UMR QO'SHMOQDA

Xayrulla ShERMATOV,
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (Kasbi tumani):

— Urush boshlanganida endigina 17 yoshga kirgan o'smir yigit edim. Biz ocharchilik, yo'qchilik yillarini boshdan o'tkazganmiz, hayotimiz oson kechmagan. Biroq urush boshlanishi bilan turmushimiz butunlay alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi. Qishloqdagi yigitlar birin-ketin jangga otlandi. Men ham 1942-yilning boshida, ya'ni 18 yoshga to'lishim bilan harbiy komissariatda ro'yxatga olinib, o'sha yilning iyun oyida frontga jo'nadim. Oradan ko'p o'tmay Smolensk viloyatida, marshal Konstantin Rokossovskiy qo'mondonligidagi 2-Belarus fronti o'qchi polki askarlari safida ilk jangga kirganman.

Dastlab oddiy askar sifatida janglarda ishtirok etgan bo'lsam, keyinroq bo'lim komandiri bo'ldim. Polsha, Germaniya, o'sha vaqttdagi Yugoslaviya hududlaridagi qirg'inbarot janglarda qatnashdim. Bu orada uch marotaba og'ir jarohatlanib, sog'ayishim bilan yana jangga qaytaverganman.

1945-yilning avgustida urushdan

Afsuski, uzoq yillar ularni yaqinlaridan bo'lak hech kim eslamadi. Hatto 1965-yildan e'tiboran G'alaba kuni tantana qilinishi joriy etilgach ham 20 millionlik qurbon sifatida umumiy raqam yoki noma'lum askar, deya yodga olinardi, xolos. Aslida bu urush va g'alaba biz, tiriklarga ehtiromgina emas. Shu sabab, men 9-mayning Xotira va Qadrlash kuni sifatida belgilanishini eng yuksak insoniy munosabat, deb hisoblayman. Hozir salomatligim ko'tarmaydi, lekin ilgariroq Navoiy va boshqa shaharlardagi Xotira maydonlarini ziyorat qilardim. Har bir shahidning ismi-sharifi zarhal harflar bilan bitilganidan quvonaman.

Xizmatdan qaytgach, hamshiralikni davom ettirdim. Oila qurib, to'rt farzandni dunyoga keltirib, voyaga yetkazdim. Nevara, chevara, evaralarim bor. Har safar yangi avlodim tug'ilganida suyunchi beraman. Shu kunlarga yetkazganiga, dorilamon kunlarni ko'rganimizga shukrona aytaman.

Sadag'asi ketay tinchlikning!

Saida KAZAKBOYEVA,
Ikkinchi jahon urushi front orti mehnat faxriysi, "Shuhrat" medali sohibasi (O'rta Chirchiq tumani):

— Men tug'ilganimda dunyoning siyosiy xaritasi bugungidan butunlay boshqacha edi. Turkiston deb atalmish zaminda milliy mustaqillik harakatlari alanga olgan, odamlar tafakkurida ma'naviy uyg'unish jarayonlari boshlangan edi. Men mana shunday dolg'ali davrda dunyoga kelganim uchun taqdiridan nolimayman.

1916-yil Qo'qon shahrida tug'ilgan bo'lsam, oilamiz nima uchun Toshkentga ko'chib kelganini bilmayman, sababini esolmayman. Ehtimol, uch yashar chog'imda otam "quloq" qilingan yoki davr taqozosi ona shahrini tashlab chiqishga majbur qilgandir? O'sha mashhur qo'shigini o'z talqinida kuylaganimdek, "tor o'ldi Saidaga Farg'ona tong otguncha..."

Taqdir meni ko'p sinadi, desam, noshukrlik demanglar... O'n bir yoshimda onamdan judo bo'ldim. Sag'ir qolgan uka-singillarimni



ona o'rnida oq yuvib-oq tarashga harakat qildim. Mening yaqinlarim Katta Farg'ona kanali hasharida qatnashgan bo'lsa, o'zim 1940-1941-yillarda O'rta Chirchiq va Piskent tumanlaridan oqib o'tuvchi 62 kilometrlik Toshkent kanali qazilishida ishtirok etdim. Birgina Toshkent kanali emas, Sirdaryo viloyatida kolxozlashtirish ishlarida, Mirzacho'ning o'zlashtirilishi uchun qazilgan bir nechta kanal hasharlarida mehnat qilganman. Bu yillar mening kaftlarimda ketmas qadoq bo'lib o'z muhrini qoldirgan.

BU DAMLARNING QIYMATI O'ZGACHA



Aminboy MATNIYOZOV,
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (Yangiariq tumani):

— Prezidentimiz tabrigi, bizga medal va katta pul mukofoti berilishi yurtimizda inson qadri yuksakligidan. Yaratgacha shukr, bu yil 103 bahorni ko'rdim. Asrga tengdosh nuroniyning tiriklik haqida o'z falsafasi,

qarashlari bo'ladi. Mendan so'rasangiz, inson hayoti sinovlardan, quvonch va tashvishlar, orzu va armonlardan iboratligiga necha bor amin bo'ldim. Shu bois umrning har lahzasining qadriga yetib, shukrona bilan yashash eng oliy saodatdir.

Yigitlik chog'imda qurol bilan janggohlarda qon kechish taqdiriga bitilgan ekan. Qanchadan-qancha safdoshlarim jang maydonlarida qolib ketdi. Yosh yigitlarning umri bevaqt xazon bo'ldi, ayollar beva, bolalar yetim qoldi. O'sha mash'um davrlarni eslash juda og'ir. Urush yillarining azobi, ocharchilik dahshatini biz ko'rdik, avlodlarimiz taqdirida minba'd bunday qora kunlar takrorlanmasin! Urushdan keyin ham uning asoratlari yillar davomida gardanimizni ezib keldi. Shu bois mahalladoshlarimga bugungi dorilamon kunlarning qadriga yetaylik, deb ko'p utqiraman.

Jigalarimdan ko'nglim xotirjam bo'lib, yangi hayot ostonasida turganimda mash'um urush boshlandi. Urushning bor suronini, ayrilik va hijronlarini boshdan kechirdim. Front o'rtining og'ir turmushi hali o'ttizza kimgan holimda sochlarimga oq oralatdi. Urushga ketgan yigitlar o'rniqa tonglarni tulgarga ulab dalada ketmon chopar, tunlarni tonglarga ulab ishladi.

Urush yillari xotin-qizlar brigadasi yetakchisi bo'ldim. Paxta ekishdagi asosiy agrotexnik tadbirlar — shudgorlashmi, chigit ekishmi, chopiqmi, sug'orish yo terim jarayonlari — hamma-hammasiga boshchilik qilish chekimga tushdi. Arpa qaynatib, zog'ora non yegan, atala ichgan kunlarimni aytсам, evaralarim ertak deb o'ylaydi. Afsuski, bular cho'pchak emas, bularning bari o'tgan kunlar...

O'sib kelayotgan navqiron avlod azaliy dunyoning abadiy haqiqatiga mening bir asrlik umrim misolida iqrar bo'lishlarini istayman. Halol mehnat, albatta, o'z samarasini beradi. Bugungi yorug' kunlar shukronasi men so'ylaydigan bir asr hikoyatining eng yorqin lahzalidir.

OSOYISHTA O'TAYOTGAN HAR KUNIMIZ BAYRAM

Umarali OTABOYEV,
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (Paxtaobod tumani):



— Har tong uyg'onar ekanman, yangi kunni kutib olganim uchun shukrona keltiraman. Tinchlik-osoyishtalikda o'tayotgan har bir daqiqamiz bayram ekanini nabiralarm, chevaralarimga bot-bot takrorlayman. Buni, ayniqsa, men kabi urush ko'rgan insonlar yaxshi his qiladi.

...O'shanda 1942-yilning avgust oyi edi. Tengdoshlarim qatori frontga otlandim. Vatan himoyasi uchun kerak bo'lsa jonimni ham berishga rozi edim. Muhimi, ota-onam, yaqinlarim tinch bo'lsa bo'ldi, dedim. Urush kinolarda aks etganidan yuz chandon, ming chandon fojialidir. Uning girdobidan omon chiqish qiyin. Yagona umid — yurtini boy bermaslik. Shu bois ko'ksimni yovning o'qiga tutsam tutdinki, aslo ortga chekinmadim. Ikki marta yaralandim, biroq bu mening yuragimdagi olovni so'ndira olmadi. Qaytanga avvalgidan-da mardonavor jang qilishga chorladi.

1945-yilda Paxtaobod tumanidagi ona qishlog'imga qaytganimda oila a'zolarim, yaqinlarim, mahalladoshlarimning yuzidagi xursandchilikni ko'rib, barcha azoblarni unutdim. Janggohlarda bejiz qon kechmaganimni tushunib yetdim.

Bu yil 100 yoshga kirdim. Yurtimizdagi o'zgarishlarni ko'rib, yana yuz yil yashagim keladi. Qay bir manzilga razm solmag, obodlikni ko'rasiz. Odamlarning yuzida baxt va quvonch balqiydi. Hamma orzu-istaklari, rejaları yo'lida harakat qiladi. Bularning barchasi qanchalik ulkan saodat ekanini bilsangiz edi!..

Hozirda 7 nafar farzandim, 22 nabiram, 50 nafar chevaram, 4 evaram bor. Ular bilan suhbatlashganda bugungi kunning qadriga yetishlarini, mavjud sharoit va imkoniyatdan unumli hamda to'g'ri foydalanishlarini tayinlayman. Axir, vaqt g'animat! Uni foydali amallar bilan yashash kerak. Zero, bu damlar bizning O'zbekistonda o'zgacha. Yangi hayot uchun, yangi davr uchun yashashning o'zi kurashdir. Men yurtdoshlarimga ana shu kurashning qahramonlari bo'lishlarini tilab qolaman!

ФАКТ ВА РАКАМЛАР

- Ikkinchi jahon urushiga safarbar etilgan o'zbekistonliklar soni — **2 millionga yaqin;**
- jang maydonlarida qahramonlarcha halok bo'lgan yurtdoshlarimiz soni — **540 mingga yaqin;**
- bedarak yo'qolganlar soni — **158 ming nafar;**

■ **mustaqillik yillarida mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligi yo'lida o'z jonini fido etgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari soni — 200 nafarga yaqin.**

TIRIK TARIX

Shohimardon otaning xotiralarida urush davri qiyinchiliklari bilan birga, bir ayolning sabri, muhabbati va vafodorigi ham yashaydi. Bu ayol — uning umr yo'ldoshi Pardaxol Chorshanbiyeva.



...18 yoshga to'lgan Shohimardon Pardaxol bilan nikohdan o'tganida endigina bir oy bo'lganida frontga chaqirildi. Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Darband qishlog'idan urushning dastlabki yilida o'ttiz nafar yigit u bilan birga jangga otlandi.

"Elbayon" temir yo'l stansiyasida uch kun Tojikistondan keladigan eshelon kutildi. Keyingi manzil — Buxoro viloyatining Kogon shahri bo'ldi. Yo'l-yo'lakay boshqa viloyatlardan urushga chaqirilganlar vagonlarga chiqarildi. Kogonda biroz tin olingach, odamga liq to'lgan poyezd Qozog'iston orqali

Rossianing Voronej viloyatiga yo'l oldi. Shu yerdan jang o'chog'iga kirildi. Deyarli hamma go'ri yigitlar edi. Qalblarda qo'rquv hissi kuchli bo'lsa-da, Vatan sha'ni, ortda qolganlar taqdiri yuraklarga dalda berardi. Chodirlar tikildi, joylashildi. O'lis yo'l charchog'i, barcha birin-ketin uyquga ketdi. Yarim tunda dahshatli qirg'inbarotning dastlabkisi boshlandi — fashistlar havodan hujum uyushtirdi. Biror narsa qilish imkonisiz, hatto berkinishga joy yo'q. Hamma jonini asrash payida edi...

Shohimardon ota bu kunlarni xotirlar ekan, taqdirining achchiq qismati shu yerdan

boshlanganini aytadi. Birga katta bo'lgan hamqishloq do'stlari ko'z o'ngida parchalanib ketganini, shu kuni o'zi bilan kelganlarning yarmidan ko'pi hali jangga kirmasdan nobud bo'lganini ko'zda yosh bilan eslaydi.

Yosh jangchi Shohimardon omon qolgan safdoshlari bilan Saratov viloyatida jangga tayyorlandi. Bir oydan so'ng ularni Kalininsk viloyatiga olib ketishdi. U yerda askarlar qismlarga bo'lindi. Shohimardon artilleriya qismlaridagi to'pchilar safida xizmat qila boshladi.

Shohimardon Moskvadagi janglarda, Belarusedagi qirg'inlarda uch marta — yelka va oyog'idan yaralandi. Jarohat olgan askarlarning uyga qaytish imkonini bo'lardi. U esa bunday qilmadi, ilk tunda halok bo'lgan qishloqdosh do'stlari, safdoshlari oldida o'zini qazdior, deb bilardi. Ularning qasosini tobi tirik ekan oxirigacha olishga qasam ichgandi. Oyoqqa turishi bilan yana jang maydoniga oshiqdi.

U urushning so'nggi marrasigacha borishni uddaladi. 1944-yil 28-iyul kuni Brest fashistlardan ozod etilishida qatnashdi. Ungacha Moskva, o'sha vaqttdagi Stalingrad, Voronej shaharlari, Latviya, Litva, Estoniya, Belarus tuproqlaridagi janglarda qahramonliklar ko'rsatdi. 1945-

yil 9-may kuni radioda yangragan "G'alaba" degan xitobni jang maydonida eshitdi.

Ko'ksi to'la orden va medallar bilan uyga qaytgan Shohimardonni yaqinlari quvonch ko'zyoshlari bilan kutib oldi. U shu damgacha intizor kutgan sadoqatli yori Pardaxol bilan qayta nikohlandi.

Shohimardon bobo ajal domidan omon qaytishida Vatanga muhabbat bilan birga suyuqli yorining beg'ubor sevgisi, sabr-bardoshi tayanch bo'lgan deb biladi. Sof muhabbat va umid hamisha yuraklarni birlashtirishini aytishdan charchamaydi.

Bugun Shohimardon boboning so'zlarida Pardaxol momoning obrazi go'yat go'zal va muqaddas. Suyukli yori — sabr va vafodorlik timsoli.

Ayni paytda Boysun tumanidagi Temir darvoza mahallasida istiqomat qilayotgan Shohimardon bobo Hamroyev tabarruk 104 yoshda. U urushdan keyin 42 yil o'qituvchi bo'lib ziyo tarqatdi. O'n nafar o'g'il-qizni halol luqma bilan voyaga yetkazib, elga qo'shdi.

...Tabarruk otaxonning xonadoni bugun yanada gavjum. Shohimardon bobo yangi O'zbekistonga tinchlik-totuvlik, amalga oshirilayotgan islohotlarga bardavomlik, yosh avlodga baxtu saodat tilab, duo qilishdan charchamaydi.

Farhod ESONOV
("Xalq so'zi").

DORILAMON ZAMONLARGA KO'Z TEGMASIN!

Usmonjon RAHIMOV,
Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi (Qo'qon shahri):

— Xudoga shukr, yuz bilan yuzlashdim. Xotira daftarim birda shodlik, birda qayg'uga yo'g'rilgan esdaliklarga to'la. Bolaligim o'tgan asrning eng qahatchilik va ocharchilik yillariga to'g'ri keldi. Shuning uchunmi bugungi tinch-osoyishta, dorilamon kunlarga shukr aytishdan hech charchamayman.

18 yoshga to'lib-to'lmay — 1943-yilning yanvar oyidan jang maydonida urush dahshatlarini his etdim. Shu tarzda Berlingacha bo'lgan yo'lni bosib o'tib, g'alaba onlari sururidan ham bahramand bo'ldim. Undan so'ng dastlab yapon militaristlari bilan kechgan



Rustam MIRZAYEV,
mehnat faxriysi (Xovos tumani):

— Energetika bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassislik diplomini olgach, ko'p yillar davomida Sirdaryo issiqlik elektr stansiyasida ishladim. E'tiborlisi, mehnat



urushda, keyingi qurilish-bunyodkorlik ishlarida qatnashib, 1948-yili ko'ksim to'la orden-medallar bilan ota yurtga qaytdim. 45 yil temir yo'l sohasida mehnat qilib, el-yurtida, jamiyatda o'z o'rnimni topdim. Turmush o'rtog'im Xadichaxon bilan 4 o'g'il, 3 qizni xalq xizmatiga kamarbasta insonlar qilib tarbiyaladik. Hozirgi kunda 100 ga yaqin nabira-chevaralar

daftarchamda faqat bitta, ya'ni Markaziy Osiyodagi gigant energetika korxonasida faoliyat yuritgan, degan qayd bitilgan, xolos. Bundan bir necha yil avval izzat-ikrom bilan faxriylikka kuzatildim.

Rosti, uzoq yil qizg'in ish jarayonida va minglab kishilardan iborat jamoada bo'lgan odam pensiyaga chiqqan dastlabki kunlarda o'zini jamoadan uzilib qolgandek his qilgan ekan.

Ammo aslida unday emas: mehnat faxriysi bo'lsam-da,

hali-hamon o'zimni jonajon Sirdaryo IES jamoasining to'laonli a'zosidek bilaman. Negaki, nurxonadagi kasbdoshlarim ko'p yillik tajribam boismi, ish yuzasidan maslahatlar so'rab turadi. Muhimi, xoh sovg'a-salom, xoh bir og'iz hol-ahvol so'rash bilan bo'lsin doim hurmat-ehtirok ko'rsatishadi.

Shu bilan birga, Shirin shahar hokimligi va boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan ham mehnat faxriylarini qadrlash

yo'nalishida ko'plab ibratli ishlar qilinmoqda. Bularning bari Vatanimizda inson qadriga bo'lgan yuksak e'tiboring amaldagi ifodasi, albatta.

O'z navbatida, biz, faxriylar ham jamiyat, xususan, mahalla hayotida faol ishtirok etyapmiz.

Aytmoqchi bo'lganim, keksalari doimo e'zoz-hurmatda bo'lgan yurtdan aslo qut-baraka arimaydi. Ularning duolari bilan el ko'karadi, gullab-yashnaydi. Buni yangi O'zbekiston misolida ko'rib, guvoh bo'lib turibmiz.

"Xalq so'zi".

Poytaxtimizda O'zbekiston davlat filarmoniyasi tasarrufidagi "Dutorchilar" ansambli tomonidan "Ustozlarni yod etib" nomli konsert dasturi namoyish qilindi.



Kiberkorrupsiya:

yangi davr – yangi xavf-xatarlar

Poraxo‘rlik uchun javobgarlikka tortilgan shaxslar soni ham bir yarim baravar oshgan. Shu bois korrupsiyaga, ayniqsa, uning yangi ko‘rinishlariga qarshi kurashish mamlakatimiz uchun eng muhim vazifadir.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashning joriy yil mart oyida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Prezidentimiz korrupsiya islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov ekanini ta’kidladi. Davlat rahbari kiberkorrupsiyaga qarshi ayovsiz kurashish tashabbusini ilgari surdi.

Xo‘sh, kiberkorrupsiya deganda nima tushuniladi? Bu korrupsion jinoyatlarning yangi shakli bo‘lib, zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi. Bunda pora sifatida, odatda, kriptoktivarlar namoyon bo‘ladi. Shu bois turli kriptovalyutalar, tokenlar yoki virtual maydondagi boshqa moddiyatlarni ko‘rinishida pora olish kiberkorrupsiya sifatida baholanishi mumkin. Ahamiyatli, korrupsiyaning odatiy shakllaridan ko‘ra bunday jinoyatlarni aniqlash ancha qiyinroq.

Keng miqyosda raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish jarayonlari kechayotgan so‘nggi paytlarda korrupsiya ham yangi sharoitlarga moslashmoqda. Endilikda uning blokcheyn texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan turlari paydo bo‘ldi. Kriptoktivarlar va boshqa virtual tovarlar pora predmetiga aylandi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra pul yuvish va korrupsiya sohasida kriptoktivarlarning noqonuniy aylanishi 40 mlrd. AQSH dollaridan ortdi. Masalan, Xitoyda o‘tgan yili kriptoktivarlar yordamida pul yuvish bilan bog‘liq noqonuniy harakatlar uchun 3000 dan ortiq shaxslar jinoyi javobgarlikka tortilgan.

O‘zbekiston Respublikasida kriptobozor faol bosqichga kirmoqda. Bugungi kunda mamlakatda 11 ta kriptodok‘on, 5 ta kriptodepozitariy va

2 ta kriptobirja faoliyat ko‘rsatmoqda. 2019 — 2024-yillarda kriptoktivarlar aylanmasi sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi provayderlardan Davlat byudjetiga 56,5 mlrd. so‘mdan ortiq mablag‘ tushdi.

“Token.uz” milliy blokcheyn tarmog‘i ishga tushirilganidan so‘ng bir yildan kamroq vaqt ichida 412,8 ming tranzaksiyani amalga oshirdi, ulardan olingan foyda 428,5 mln. so‘mni tashkil etdi. “UZINFOCOM”ning blokcheyn asosidagi “NFT”dan domen nomlariga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlash bo‘yicha loyihasi ishga tushirilgandan beri olingan daromad 29 mln. so‘mdan ortiq bo‘ldi. Bu raqamlar kiberkorrupsiyaga qarshi kurashda kriptoktivarlar muomalasi qonuniyligini ta‘minlash juda muhimligini ko‘rsatadi.

Ayni paytda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan kiberkorrupsiyaga qarshi kurash bir necha yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Eng muhimi — bu jarayonning huquqiy asoslarini mustahkamlashdan iborat bo‘lib, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishga bag‘ishlangan 5 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 13 ta Farmon va qarori qabul qilingan. Bundan tashqari, kriptoktivarlar muomalasi sohasida qonunchilik bazasi shakllantirildi.

Biroq kiberkorrupsiyaga qarshi kurashning konsepsiyasi va asosiy mexanizmlari alohida tartibga solinmagan. Shu bois kiberkorrupsiya tushunchasini qonunchilikda mustahkamlab qo‘yish, kiberkorrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy chora-tadbirlarini, bu borada tegishli davlat organlarining vakolatlarini belgilash zarur. Ayrim ekspertlarning fikricha, vakolatli organlar toifasiga O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi Iltiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) ham qo‘shilishi kerak. Chunki

ILMA kriptoktivarlar muomalasi va elektron tijoratni, jumladan, litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish qoidalarini tartibga soluvchi vakolatli organ hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, qonunchilikda kiberkorrupsiya uchun javobgarlik, javobgarlikka tortish asoslari va mutanosib jazo choralari belgilanishi kerak. Bu boradagi sa’y-harakatlar boshlangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan yaqinda qabul qilingan “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorda mazkur masalaga oid aniq vazifalar belgilab berilgan.

Xususan, ilk marotaba mamlakatimizda kiberjinoyatlarga qarshi kurashish yo‘nalishida vakolatli organ sifatida Ichki ishlar vazirligi belgilandi, uning zimmasiga yagona amaliyotni yo‘lga qo‘yish, bu borada barcha mas’ul davlat organlari va muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda manzilli hamkorligini tashkil etish yuklatildi.

Bundan tashqari, aynan kiberkorrupsiyada pora predmetiga aylanishga ulgurgan kriptoktivarlar va boshqa virtual tovarlar noqonuniy aylanmasining oldini olish maqsadida qarorda banklar, to‘lov tizimi operatorlari hamda to‘lov tashkilotlari, shuningdek, boshqa muassasalarning axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik talablariga rioya etmaganligi natijasida sodir qilingan kiberjinoyat oqibatida kelib chiqqan moddiy zararni ular hisobidan undirish tartibi joriy etilishi ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, Markaziy bank tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning tranzaksiyalarini monitoring qilish orqali shubhali holatlarni aniqlash hamda ular haqida huquqni muhofaza etuvchi organlarga tezkor xabar berish tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda.

Kiberkorrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi muhim yo‘nalishlardan yana biri kriptoktivarlar noqonuniy muomalasining oldini olish uchun zarur texnik choralarni amalga oshirishga qaratilgan.

Kriptoktivarlar muomalasi bilan bog‘liq jinoyatlar tergovida butun dunyoda huquqni muhofaza qilish va sud organlari uchun asosiy muammo bu — sodir etilgan harakatlarni latentligi va tranz-aksiyalarni kuzatib borishning qiyinligi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2024-yilda o‘g‘irlangan kriptoktivarlar hajmi 2,2 mlrd. AQSH dollariga yetgan.

Ko‘rinib turibdiki, kiberkorrupsiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini aynan tizimli yondashuv asosida amalga oshirish talab etiladi. Ayni damda davlat tomonidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar mutanosib va samarali bo‘lishi, shu bilan birga, jarayonga keng jamoatchilik ham jalb qilinishi kerak. Bularning barchasi korrupsiyaning turli shakllari, jumladan, kiberkorrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga va unga qarshi samarali kurashishga imkon beradi.

Abdulaziz RASULEV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor.



Ilk bor amerikalik rohib Rim papasi martabasiga erishdi

“CNN” muxbiri xabariga ko‘ra Rim-katolik cherkoviga rahbar saylash uchun Vatikanda konklavga to‘plangan kardinallar yangi Rim papasi kim bo‘lishiga kelishib oldi. Robert Prevo tarixdagi birinchi amerikalik pontifikka aylandi. U o‘ziga Lev XIV ismini tanladi.

Robert Frensis Prevo 69 yoshda. U, asosan, Janubiy Amerika davlatlarida faoliyat yuritgan va yaqinda yepiskoplarni tayinlash bo‘yicha Vatikandagi ofisning rahbarlik martabasini egallagan edi. Prevo o‘n yil davomida Peruda ishlagan, keyin esa Chikklayo shahri yepiskopi etib tayinlangan.

Eslatib o‘tamiz, avvalgi Rim papasi Fransisk 21-aprel kuni 88 yoshida vafot etgan edi.

Germaniyaning yangi kansleri

“DW” vakili tarqatgan xabarga ko‘ra Bundestag (Germaniya parlamenti) ikkinchi urinishda ko‘pchilik ovoz bilan xristian demokratlar yetakchisi Fridrix Mersni Germaniya kansleri etib sayladi.

Qonunga ko‘ra nomzod g‘alaba qozonish uchun 316 ta ovoz olishi kifoya bo‘lardi. Mers uchun 325 nafar deputat ovoz berdi. 289 nafar parlament a‘zosi qarshi chiqdi.

Mers va uning kabineti a‘zolari federal Prezident Frank-Valter Shtaynmayerdan lavozimga tayinlash to‘g‘risidagi yorliqni olganidan so‘ng Xristian-demokratik ittifoq va Xristian-ijtimoiy ittifoq (XDI/XSI) konservativ blokining muddatidan avvalgi saylovlardagi g‘alabasidan keyin boshlangan hokimiyatga o‘tish jarayoni uzil-kesil yakunlanadi.

Iqlim o‘zgarishiga kim aybdor?

Iqlim inqirozi — bu shunchaki global chiqindilar oqibati emas, balki ma’lum bir shaxslarning aniq qarorlari natijasi. Xalqaro olimlar jamoasi shularni aniqladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra Yer aholisining eng badavlat 10 foizi 1960-yildan buyon kuzatilayotgan global isishning 66 foizi uchun mas’ul bo‘lib chiqdi. Bu o‘ta xavfli issiqlik to‘lqinlari va tropik hududlardagi qurg‘oqchiliklarga o‘xshash keskin ob-havo hodisalari tez-tez kuzatilishiga olib kelgan. Tadqiqotchilar ishi “Nature Climate Change” jurnalida chop etilgan.

Nihoyatda boylar, ya’ni Yer aholisining 1 foizi alohida ajralib turadi. Ularning harakatlari ekstremal issiqlik to‘lqinlarining (ilgari yuz yilda bir marta ro‘y beradigan) yuzaga kelishiga dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga qaraganda 26 barobar ko‘proq hissa qo‘shgan. Ularning Amazonkadagi qurg‘oqchiliklarga qo‘shgan hisssasi esa global o‘rtacha ko‘rsatkichdan 17 barobar yuqori.

Tadqiqotda qayd etilishicha, faqat dabdabali hayot tarzi uchun sarflanayotgan xarajatlari emas, balki boy insonlarning investitsiyalari ham xavfli. Karbonat chiqindilari yuqori bo‘lgan sohalarga yo‘naltirilgan moliyaviy oqimlar iqlimga juda katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tirbandlikka samarali yechim

Istanbul Okan universitetining qurilish injineriyasi dotsenti Selim Dunder “Anadolu” axborot agentligi muxbiri bilan bergan intervyusida transport vositalarining soni yo‘l sig‘imidan oshib ketgani sababli shaharda tirbandlik kuzatilayotganini aytdi.

Uning ta’kidlashicha, to‘xtash taqiqlangan joylarda to‘xtab turish, yo‘lni favqulodda o‘zgartirish va boshqa yo‘l harakati qoidalarini buzish ko‘plab muammolarga sabab bo‘lmoqda.

“TomTom Traffic Index” ma’lumotlariga ko‘ra Istanbul 2023-yilda dunyodagi eng tirband shahar deb topildi, haydovchilar erkin oqim sharoitlariga nisbatan tirbandlikda 105 soat qo‘shimcha vaqt sarflaydi.

Dundarning aytishicha, ko‘proq yo‘l va chorraha qurish muammoni hal qilmaydi. U jamoat transportiga ko‘proq sarmoya kiritish hamda velosiped va elektr skuterlar kabi mikromobillik imkoniyatlarini kengaytirishga chaqirdi.

Internet xabarlar asosida Sharofiddin TO‘LAGANOV (“Xalq so‘zi”) tayyorladi.

TARAQQIYOT SARI ODIMLAYOTGAN VOHA

Xorazmga tashrif chog‘ida barchani birday quvontirgan masalalardan biri — bu temir yo‘l bilan bog‘liq yangiliklar bo‘ldi, desak, ayni haqiqat. E’tiborsiz, Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi poyezdda jamoatchilik bilan birga Urganchdan Xivaga bordi. Ayni chog‘da O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan vagonlar va Urganch — Xiva elektrlashtirilgan temir yo‘lini ko‘zdan kechirdi.

Bugungi kunda 465 kilometrlik Buxoro — Urganch — Xiva temir yo‘li elektrlashtirilib, himoya to‘siqlari o‘rnatilgan va zarur inshootlar qurilgan. Bu yo‘nalish uchun Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasidan yuqori tezlikdagi 6 ta elektropoyezd xarid qilinib, kelgusi yildan “Jaloliddin Manguberdi” nomi ostida Toshkent — Xiva yo‘nalishiga qo‘yiladi. Va yiliga 3 milliondan ortiq yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatiladi. Hozirda Toshkentdan Xivaga 14 soatda borilsa, mazkur yo‘nalishda harakatga qo‘yiladigan elektropoyezd imkoniyatlarini tufayli bu vaqt teng yarmiga qisqaradi. Aytish joizki, 2023-yil

10-oktyabrda temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish to‘g‘risidagi qaror asosida vagonsozlik tarmog‘i ham mustahkamlanmoqda. Jumladan, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan ajratilgan 50 mln. dollar yo‘lovchi vagonlari ishlab chiqarish uchun yo‘naltirilgan. Joriy birinchi chorakda dastlabki 10 ta yo‘lovchi vagoni qurib bitkazilgan. Davlat rahbari ulardagi qulayliklarni ko‘zdan kechirdi.

Bildirilishicha, kelgusi ikki yilda yo‘lovchi vagonlari soni 70 taga ko‘paytirilib, eski turdagilaridan bosqichma-bosqich voz kechiladi. Natijada yiliga 1 mln. nafardan ortiq qo‘shimcha yo‘lovchi tashish imkoniyatlari yaratiladi.

Albatta, bu o‘zgarishlar har bir xorazmlikni quvontirishi tabiiy. Chunki sohadagi yangilanishlar vaqtini, mablag‘ni tejash va yuksak marralarni egallash uchun imkoniyat, demak.

Anvar TO‘YCHIYEV, Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi.

Aholi salomatligini mustahkamlashda zamonaviy yondashuv va imkoniyatlar

Ammo erishilgan natijalar xalqimiz kabi davlat rahbarini ham qanoatlantirmaydi. Yig‘ilishda tibbiy sug‘urtani joriy qilish ortga surilib kelinayotgani keskin tanqid qilindi. Toshkent shahrida o‘tgan yili, Qoraqalpog‘iston, Navoiy, Samarqand, Farg‘ona, Surxondaryo va Xorazmda joriy yil ushbu tizim ishga tushishi kerak bo‘lsa-da, ishlar rejadagidek bajarilmagani, Sug‘urta jamg‘armasi faqat tayyor pulni taqsimlovchiga aylanib qolgani ko‘rsatib o‘tiladi.

Mutasaddilar tizimni to‘liq raqamlashtirish u yoqda tursin, oddiy “elektron retsept”ni ham ishga tushira olmagan tanqid qilindi. “Elektron poliklinika”, “Elektron shifoxona”ni joriy etishda ham jiddiy oqsoqliklari borligi aytiladi.

Albatta, bunday keskin e’tirozlar ortida aniq hisob-kitob va tahlillar yetibdi. Chunki soha raqamlashsa, nafaqat qulaylik ortadi, shu bilan birga, aholining sohaga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanadi, tizim shaffoflashadi. Tibbiy sug‘urta tizimi joriy etilsa, fuqaro har bir sarflangan so‘m uchun hisob-kitobni ko‘ra oladi. Tibbiy xizmatlar bepul va kafolatlangan toifalar bo‘yicha ajratiladi.

Shuningdek, soha raqamlashsa,

elektron retsept, onlayn navbat, shifokorga masofadan yozilish imkoniyatlari yanada kengayadi. Davolanish tarixi, diagnostika natijalari onlayn holatda saqlanadi. Odamlar qog‘oz ko‘tarib yurishga majbur bo‘lmaydi. Sog‘liqni saqlash sohasida samaradorlik oshib, korrupsiya va byurokratiya yo‘qoladi.

Avval “Menga kerak dori dorixonada yo‘q ekan”, degan gapni tez-tez eshitir edik. Hozir esa ahvol ancha yaxshilangan. Sababi mahalliy dori ishlab chiqaruvchi korxonalar soni ortyapti. Bugun mahalliy ishlab chiqarish hisssasi 38 foizga yetdi, bu — narxlarning barqaror bo‘lishi, dori vositalariga yetarli ta’minot va sifatli mahsulot demak.

Biroq bu borada ham hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar bor. Mamlakatimizda har yili 600 — 700 mln. dollar mablag‘ samaradorligi isbotlanmagan va o‘rganilmagan dorilarga sarflanmoqda. Bunday dorilarning importdagi ulushi 42 foiz. Rivojlangan davlatlar dalillarga asoslangan tibbiyotga tayanib, keng miqyosda o‘tkazilgan klinik tadqiqotlar orqali samaradorligi va xavfsizligi isbotlangan dorilardan foydalanadi.

Shu bois Sog‘liqni saqlash vazirligiga xalqaro tan olingan manbalarda

O‘zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmatlar qamrovi va turlarini kengaytirish maqsadida “Faol hayotga qadam” dasturi joriy etiladi.



MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhih Sh. Mashrabboev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni — 04.25 Topshirildi — 05.25 **1 2 3 4 5 6**